BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISH OMILLARI

Zafar Mamatkulov Abdusaidovich
Sambhram universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada banklardagi moliyaviy barqarorlik holatlari hamda ularni boshqarish omillari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy barqarorlik, bank, moliyaviy holat, bozorlar, bozor infratuzilmalari, ehtimoliy shoklar, nobarqarorlik.

Аннотация

В этой статье представлена информация о состоянии финансовой устойчивости банков, а также о факторах их управления.

Ключевые слова: финансовая стабильность, банковское дело, финансовое положение, рынки, рыночная инфраструктура, вероятные потрясения, нестабильность.

Annotation

This article brings information about the circumstances of financial stability in banks and the factors of their management.

Keywords: financial stability, banking, financial status, markets, market infrastructures, probable shocks, instability.

Moliyaviy barqarorlik bank moliyaviy holatining eng asosiy elementi hisoblanadi. Bank ishonchliligi hamda barqarorlik darajasini aniqlash uning moliyaviy holatini obyektiv baholashni tizimli ravishda olib borishni talab qiladi. Bank moliyaviy holatini tizimli baholash o‘z ichiga turli moliyaviy ko‘rsatkichlar yordamida bank faoliyati samaradorligi, ishonchlilik darajasi hamda inqirozli vaziyatlarni oldini olish masalalari uyg‘unligida tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi – bu moliyaviy tizimning, ya’ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birgalikda moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini

pasaytirish qobiliyati hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikning maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta’minlashdan iboratdir. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi.

Moliyaviy tizim, qachonki banklar, boshqa kredit tashkilotlari va moliya bozorlari uy xo’jaliklari hamda tadbirkorlik subyektlariga bir maromda ishlayotgan tizimning keskin sustlashishiga yo’l qo’ymasa, iqtisodiyotdagi ishtiroki va uning o’sishi uchun zarur moliyaviy investitsiyalar taqdim qila olsagina barqaror hisoblanadi. Aks holda nobarqaror tizimda iqtisodiy shoklar real iqtisodiyotga noxush ta’sir ko’rsatishi, kreditlashni izdan chiqarishi, kutilganidan ham ziyod xatarga olib kelishi, bandlikning qisqarishi va iqtisodiy faollikni susaytirish holatlari kuzatilishi mumkin.

Moliyaviy nobarqarorlik sharoitida moliya tizimi iqtisodiyotimiz uchun zarur moliyaviy xizmatlarni taqdim eta olmaydi. Masalan, yirik moliya tashkilotidagi qiyinchiliklar moliyaviy nobarqarorlikni yuzaga keltirishi ham mumkin. Bundan tashqari, bitta muassasadagi muammolar banklararo operatsiyalar tufayli tizimning bir-biriga o’zaro qattiq bog’langan boshqa tashkilotlariga ham tarqalishi mumkin. Muassasalarning umumiy faoliyati butun moliya tizimi uchun xavfni, ya’ni tizimli xavfni yuzaga keltirishi, ishonchli bo’lib tuyulgan alohida tashkilotni ham moliyaviy nobarqarorlikka olib kelishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlik va uni tahlil qilib borish markaziy banklar hamda moliya tizimini tartibga soluvchi organlarning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bank sektori O’zbekiston moliya tizimining eng muhim bo’g’ini bo’lganligi sababli, uning barqarorligini ta’minlash O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Markaziy bank bank tizimidagi o’zgarishlarni kuzatib boradi hamda baholaydi, shuningdek, tizimli xavflar to’planishini kamaytirish va bank tizimining barqarorligini ta’minlash choralarini ko’rib boradi. Markaziy bank yiliga ikki marotaba Moliyaviy barqarorlik sharhini e’lon qiladi, unda bank tizimining barqarorligi, makromoliyaviy zaiflik va xatarlar tahlil qilinadi hamda baholanadi. Ushbu sharhni chop etishdan ko’zlagan eng asosiy maqsad – jamoatchilik xabardorligini hamda bu sohada Markaziy bankning shaffofligi hamda hisobdorligini oshirishdan iborat bo‘ladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bank tizimi rivojiga qaratilgan tub o‘zgarishlar o‘zining kutilgan samarasini berib bormoqda. Bugungi kunda banklar tadbirkorlar bilan nafaqat mijoz, balki yaqin hamkor, hammaslak sifatida mustahkam aloqa o‘rnatib olgan. O‘z biznesini yo‘lga qo‘yish istagida bo‘lgan ishbilarmonlarga nisbatan banklar katta ko‘mak bermoqda. Muxtasar qilib aytganda, aholi ishonchini qozonadigan, keng qamrovli moliyaviy xizmatlarni ko‘rsata oladigan bank tizimi shakllandi.

Ayni paytda respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan 35 ta tijorat banki orqali tizimda erishilgan ijobiy natijalar mustahkamlanmoqda. Bu natijalar bank xizmatlari va mahsulotlari turlari tobora kengayib borayotganida, ishbilarmonlik muhiti tobora yaxshilanib, banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi o‘sayotganida aks etmoqda.

Bugungi kunda mijozlar o‘z hisobvaraqlarini masofadan turib, real vaqt rejimida uyali hamda elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda boshqarish imkoniga egalar. Garchi bunday xizmatlar joriy etilganiga ko‘p vaqt bo‘lmagan bo‘lsada, lekin juda tezlik bilan ommaviylashib ketdi. Xususan, so‘nggi besh yilda ushbu xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar soni qariyb 90 foiz ortdi yoki bugungi kunda 1,1 milliondan oshdi. Plastik kartochkadan foydalanish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda.

So‘nggi besh yil mobaynida terminallar orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi 5 marta ortdi. Bank tizimiga yangi ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etilishi bilan tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar tezkorligi, sifati va ishonchligi ham oshmoqda. Bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalarini (Bazel-3) mamlakatimiz bank tizimiga Hamdo‘stlik davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib joriy etishga sharoit yaratib berdi. Unga ko‘ra, tijorat banklari kapitalining yetarligiga qo‘yilgan talablar oshirildi, likvidlikni ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha me’yorlar joriy qilindi, bank aktivlari sifatini tasniflash hamda xatarlarni boshqarish tizimlari yanada takomillashtirildi.

Bank tizimidagi islohotlarning chuqurlashuvi moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish usullari hamda vositalaridan kengroq foydalanish, tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirishda esa bevosita va bilvosita nazorat vositalarini keng qo'llashni toqoza etib bordi.

Xulosa qilib aytganda, bu choralar banklarni xususiylashtirish jarayonining navbatdagi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayon yaqin istiqbolda banklarda boshqaruv sifati hamda madaniyatini yanada yuqoriga olib chiqish, bank faoliyatida aksiyadorlar ishtiroki va mas'ulligini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga olib keladi. Banklar ishonchliligi va faoliyati samaradorligini ta'minlashda kapital bilan bir qatorda aktivlar sifatini baholab borish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlari:

1. Abdullayeva Sh. Bank risklari va ularni kreditlash. – T.: Moliya, 2002. 2.2.Y.Abdullayev, T.Qoraliyev av boshqalar. "Bank ishi". O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 404-405 b

2. P. Saidxodjayev, I. Ismatullayev "Bank operatsiyalarini sug'urtalash". Ma'ruza matnlari. T:2012. TDIU.

3. Abdullaev, A., Abdullaeva, G., & Umirova, G. (2022). Содержание стресс-тестирования экономической безопасности банковской системы.

4. F.Nasriddinov "Tijorat banklarida risk-menejment tizimini takomillashtirish yo'nalishlari". "Birja-Ekspert". -2012. №1-2.22-27 b

5. Sh, U. G., & Khurmatov, B. (2024). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligining nazariy asoslari. *Экономика и социум*, (3-2 (118)), 401-404.

6. Umirova Gulmira. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314–319. Retrieved from https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/696

7.Джаббарова Ю.А. «Основные тенденции на рынке книжной продукции в Республике Узбекистан.» журнал том 3 номер 5 ст 36-40.

8. K.E. Grishin, & Djabbarova Yulduz Abduvaliyevna. (2023). Features of printing production in modern conditions. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, *9*(9), 64–67. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.836

9. www.stat.uz.(O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)

10. www.mf.uz. (O'zbeksiton Respublikasi Moliya Vazirligi)